

KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHNING BOSQISHLARI

Abdrimova Zulxumor Masharibovna
Jumaniyozova Xolida Masharibovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 44- son maktab kimyo fani o'qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kimyo darslarida innovatsion usullardan foydalanishning bosqichlari, kimyo fani samaradorligini oshirish maqsadida turli interfaol usullar va metodlaridan foydalanish, zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiya, o'quvchilar, laboratoriya, tajriba, reaksiya.*

KIRISH:

Hozirgi vaqtda ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida turli interfaol usullar va metodlardan keng foydalanilmoqda. Har bir fan o'qituvchisi mahoratini bugungi zamonaviy bilimlar, dars o'tishning innovatsion usul va uslublari bilan boyitib borgan o'qituvchigina o'quvchilarni o'z faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ta'lim va tarbiya sohasida davrning talablariga hamohang qadam tashlay oladi.

Umumiy o'rta maktab ta'limida kimyoviy voqealarning mohiyatini chuqur tushunishda tajribalarning ahamiyati juda muhimdir. Chunki nazariy bilimni chuqur o'rganib, amalda sinab ko'rib, tajribada olingan natijalar yordamida aniq xulosalar chiqarish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining muhim vazifasi o'quvchilarda nazariy bilimlar yordamida tajribalar asosida hamma jarayonlar ma'lum qonuniyatlar orqali amalga oshirilishi haqida tushunchalarni hosil qilishdir. Hozirgi kunda fan-texnikaning takomillashishi, kimyo sanoatining taraqqiyoti, uning hayotimizda tutgan o'rni, kimyo fanining yanada rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bunda ta'lim jarayonlari ham shiddat bilan o'zgarmiqda. Axborot hajmi keskin ortmoqda. Bu esa o'qituvchini o'zining an'anaviy dars o'tish usulidan voz kechib ta'limga yangiliklarni olib kirishga chorlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatli va samaradorligini oshirishning eng asosiy omillaridan biri bu-har bir pedagogning kasbiy bilim, ko'nikma va malakasining yuqori darajada bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, bu masalalarga yechim topish esa hozirgi kunda ta'limdagi eng dolzarb masalalardan biridir. Maktabda o'quvchilarga zamonaviy sifatli bilim berish juda muhimdir. Ta'limning ustuvor maqsadlaridan biri, o'quvchilarning o'quv muammolarini, o'zining mustaqil rivojlangan qobiliyati orqali yechish jarayonni nazorat qilish, natijani baholashga o'rgatish zarur.

NATIJALAR:

Masala va mashqlar yechishni o'rgangan o'quvchi yangi mavzuni mustahkamlaydi, matematika fani bilan bog'liqdir yuzaga keladi, oliy o'quv yurtiga kirishga zamin yaratib

boradi, biroq bugungi kunda pedagoglar oldidagi asosiy muammolardan biri sinfda o'quvchi sonining ko'pligi, ularni baholashdagi muammolar, hamda kimyo fanini qiyin fan deb biladigan o'quvchilarning mavjudligi, darsga bo'lgan qiziqishning sustligi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining pastligi va ularni bartaraf qilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshirish uchun zamonaviy ta'lim, doimo yangi samarali texnologiyalardan foydalanish kerak. Agar o'quvchi fanga qiziqishi bo'lmasa, fanni o'qish, o'rganish uning uchun qiyin vazifa bo'ladi. Shuning uchun tabiiy fanlarda, shuningdek kimyo fanida ham o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchini fanga qiziqishini oshirishi kerak. O'quvchilar kimyo fanini o'rganishda, mantiqiy fikrlash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish uchun yangi innovatsion metodlar yaxshi samara beradi.

Kimyo fanini o'rganishda masala yechishni bilish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli ba'zi metodlarini qo'llash biroz qiyinchilik tug'diradi. Shunday bo'lsada kichik guruhlarda ishlash, BBB, klaster, baliq skeleti, aqliy hujum metodlari darslarning qiziqarli o'tishida yordam beradi.

MUHOKAMA:

Kerakli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'quvchining bu jarayonda faol ishtiroki kerak. Chunki, bu kompetensiyalar o'z tajribalarida shakllanadi. O'quvchilarning kimyo faniga qiziqishlari va bu fanni o'rganishga intilishlarining ortib borishi o'qituvchilarni ham ruhlantirdi. Bizga ma'lumki, kimyo fanida masala va mashqlar yechish mavzuni o'zlashtirishda asosiy o'rin tutadi.

Ma'lumki, AKT dan o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi kimyoning dunyoviy muammolari bilan bog'liq bo'lgan munozara yig'ilishlardagi aloqalarga ko'maklashish maqsadida foydalanishimiz kerak. Xuddi shunday laboratoriya tajribalarini modellashtirish o'quvchilarga real maktab laboratoriyasida o'tkazilishi jiddiy masala bo'ladigan murakkab tajribalarni boshqarish imkonini yaratadi va moddalarni tejaydi. Darslarda elektron darsliklardan foydalanishimiz, kimyodagi qiyin atom jarayonlarni, elektron bulut va elektronlar qo'zg'alishi, struktur izomeriya, gibrid orbitallar tushunchalarini osonlashtiradi.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yangi pedagogik texnologiyalar bilan o'tkazilgan darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o'zaro bir-biri bilan muloqotga va hatto o'zi xulosa chiqarishga o'rgatadi. Qo'llanmada keltirilgan interfaol dars usullar kimyo darslarini yanada qiziqarli o'tkazishga va hamma o'quvchilarni dars vaqtida faol qatnashishiga undaydi. Bu usullar bilan dars olib borgan o'qituvchi sinflarda yuqori sifat ko'rsatkichiga erishadi. Bundan tashqari kimyo darslarida nafaqat didaktik materiallardan, balki axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga mos bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Nihol, 2016.
2. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012.
3. G.P.Xomchenko. Oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun qo'llanma- T. "O'qituvchi" 2000.
4. Kimyo fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent.O 2017.
5. I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboev, K.G'opirov. Kimyo –T "Sharq" 2013.